

ARAB TILIDA “ISM” SO‘Z TURKUMI

Maxmudjonova Shodiya Adxam qizi

O‘zDJTU Sharq filologiyasi

2-kurs talabasi

tel: +998977510733

Ilmiy rahbar: Umurzakova A.U.

O‘zDJTU Arab tili tarjima nazariyasi va

amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida ism so‘z turkumi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida umumiy ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: ism so‘z turkumi, jins kategoriyasi, son kategoriyasi, aniq va noaniqlik, birlik, ikkilik, ko‘plik.

Arab tilida 3 ta so‘z turkumi bo‘lib, ulardan biri ism so‘z turkumi hisoblanadi. Ism so‘z turkumi hech qachon zamonda dalolat qilmaydi va u jins kategoriyasida, son kategoriyasida, aniq va noaniqlikda va shu bilan birgalikda kelishiklarda turlicha turlanadi va tuslanadi. Ism so‘z turkumi kengroq tushuncha bo‘lib, nafaqat o‘zbek tilidagi ot so‘z turkumini, balki sifat, son, olmosh ravish va boshqalarni ham o‘z ichida qamrab oluvchi so‘zlardan tashkil topadi. Ism so‘z turkumiga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

محمد – *Muhammad*

كتاب – *kitob*

نحن – *biz*

واحد – *bir*

جميل – *chiroyli*

قراءة – *o‘qish.*

Ism so‘z turkumining 5 ta alomati bor. Bular:

1. Jar qiluvchi harflar bilan jar holatida (مجرور) holatda keladi.

Masalan:

لطالب – *talaba uchun, talabaniki.*

Ushbu so‘zda “ل” jar qiluvchi harflardan biri hisoblanadi.

2. Izofa, ya’ni ikkita ism so‘z turkumiga oid so‘zlarga izofa holatida kelishi mumkin. Masalan:

كتاب طالب – *talabaning kitobi.*

Ushbu birikmadagi ikkala so‘z ham ism so‘z turkumiga kiradi.

3. Tanvin belgisi, faqatgina ism soʻz turkumidagi soʻzlar bilan qoʻllaniladi. Masalan:

كِتَابٌ – *kitob*

كِتَابًا – *kitobni*

كِتَابٍ – *kitobning*.

4. “ال” aniqlik artiklining qoʻllanilishi. Masalan:

الْكِتَابُ – (aniq) *kitob*

الطَّالِبُ – (aniq) *talaba*.

5. Nido harflarini qoʻllanishi. Nido harflariga misol “يا” harfi boʻlib, u doimo ism soʻz turkumidagi soʻzlardan oldin keladi. Masalan:

يَا طَالِبُ – *Ey, talaba!*

يَا بِنْتِي – *Hoy, qizim!*

يَا أُمِّي – *Ey, onam!*

Ism soʻz turkumi jins kategoriyasi boʻyicha ikkiga boʻlinadi. Bular “مذكر” (erkak jinsi uchun) va “مؤنث” (ayol jinsi uchun) hisoblanadi. Erkak jinsidagi jamiki soʻzlar arab tilida “مذكر” deb ataladi. Ularga quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

مُحَمَّدٌ – *Muhammad*

كِتَابٌ – *kitob*

طَالِبٌ – *talaba*.

Ayol jinsiga tegishli boʻlgan soʻzlar “مؤنث” deb ataladi. Soʻzning oxiri muannaslik belgisi, misol uchun toyi martuba (ة) bilan tugasa, yoki ayollarga atab qoʻyilgan ismlar, tananing juft aʼzolari, aksariyat davlat va shaharlarga atab qoʻyilgan nomlar ham “مؤنث” jinsida boʻladi. Masalan:

جَامِعَةٌ – *universitet*

زَيْنَبٌ – *Zaynab*

كُوَيْتٌ – *koʻz*

تُوشْكَنْتٌ – *Toshkent*.

Arab tilidagi ismlar son kategoriyasida boshqa tillardan, masalan, oʻzbek, rus, ingliz tillaridan farqi oʻlaroq, 3 guruhga boʻlinadi. Ular birlik, ikkilik va koʻplik hisoblanadi. Ikkilik va koʻplikda ismlarni turlash uchun maxsus qoʻshimchalardan foydalanamiz. Birinchi birlikdagi soʻzlarga toʻxtalamiz.

Birlik bu shaxs, narsa, buyum yoki hayvonlarning soni bittadan iborat ekanligini anglatadi. Arab tilida birlikdagi soʻzlarni yasash uchun alohida qoʻshimchalar mavjud emas. Masalan:

دَفْتَرٌ – *bitta daftar*

مُعَلِّمٌ – *bitta oʻqituvchi*

نَظْرَةٌ – *bitta koʻzoynak*.

Ikkilik kategoriyasida ismlarni tushlash uchun maxsus qoʻshimcha mavjud va u “ان” qoʻshimchasi hisoblanadi. Har qanday ismning ikkita ekanligini ifodalamoqchi

bo'lsak, albatta, ushbu qo'shimchadan foydalanishimiz kerak. Masalan:

دفتران – *ikkita daftar*
معلمان – *ikkita o'qituvchi*
نظارتان – *ikkita ko'zoynak.*

Barcha tillarda bo'lganidek, arab tilida ham ko'plik kategoriyasi mavjud va o'ziga xos qo'shimchalarga ega. So'zlardan ko'plik shaklini yasashning o'zi ham ikki turda bo'ladi.

➤ جمع مذکر/مؤنث سالم
➤ جمع تکسیر

Birinchi ko'plik turi erkak jinsining “ون/ین” bilan va ayol jinsining “ات” bilan yasalgan to'g'ri ko'plik shaklidir. Masalan:

معلمون – *(erkak) o'qituvchilar*
مهندسون – *(erkak) muhandislar*
معلمات – *(ayol) o'qituvchilar*
مهندسات – *(ayol) muhandislar.*

Arab tilida ikkinchi ko'plik turi siniq ko'plik deb ataladi. Siniq ko'plikni yasash uchun muayyan qo'shimcha yoki qoida mavjud emas. Ularni faqatgina yodlash orqali o'zlashtirishimiz mumkin. Masalan:

طلاب – *talabalar*
کتاب – *kitoblar*
مدارس – *maktablar.*

Arab tilida so'zlar aniq va noaniq shakllarda keladi. Noaniq so'zlarni aniq holatga o'tkazish uchun, asosan, “ال” aniqlik artiklidan foydalanamiz. Masalan:

“کتاب” so'zi ayni vaqtda noaniq shaklda turibdi.

Uni aniq holatga keltirish uchun “ال” artiklini so'z boshiga qo'shamiz va natijada “الکتاب” so'zi hosil bo'ladi.

Ba'zi so'zlar borki, ularga “ال” aniqlik artiklini qo'shilmasa ham aniq holatda keladi. Ular olmoshlar, atoqli otlar, joylarga atab qo'yilgan nomlar, aksariyat davlat, daryo, tog', shahar nomlari va boshqalardir. Masalan:

أنا – *Men*
شادية – *Shodiya*
محمود – *Mahmud*
أوزبکستان – *O'zbekiston.*

Xulosa qilib aytganda, arab tilida ism so'z turkumi juda ham katta mavzu hisoblanadi. Ushbu maqolada esa u haqida umumiy ma'lumotlar berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdujabborov A. Arab tili. Darslik. – Toshkent, 2005.
2. Erkaboyeva N. O‘zbek tilidan ma'ruzalar to‘plami. – Toshkent, 2016.
3. Xasanov M., Abzalova M. Arab tili darslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2009.
4. Sharq tillari (Arab tili) fanidan o‘quv -uslubiy qo‘llanma. – Jizzax, 2017.